



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-mart

VII-7-33-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi KQ-791-IV sonli va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 28-avgustdagagi VI-102-86-7-0-K/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz sakkizinchisessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi KQ-791-IV sonli va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 28-avgustdagagi VI-102-86-7-0-K/24-sonli qarorlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqishning tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va xalq deputatlari tuman Kengashining reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaga (R.G‘ulomov)ga:

xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani qonunchilik hujjatlari, shu jumladan mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan tartib talablariga qat’iy rioya etgan holda ko‘rib chiqish;

xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi taqdimnomalarni ko‘rib chiqishda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va

tergov organi ish yurituvida bo‘lgan muayyan ishlar va materiallarga aralashmaslik tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining reglament va deputatlik odobi-axloqi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.G‘ulomov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani  
Kengashining  
2025-yil 5-martdagi  
VII-7-33-7-96-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan deputatlarni  
daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqishning  
TARTIBI**

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqishning tartibi (bundan buyon matnda tartib deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Deputatlarni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqish tartibini belgilashdan asosiy maqsad “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning talablariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlash, deputatlarning daxlsizlik huquqini samarali tashkil etish hamda xalq deputatlari tuman Kengashining (bundan buyon matnda tuman Kengash deb yuritiladi) va boshqa vakolatli organlarning mazkur yo‘nalishda mas’uliyatini yanada oshirishdan iborat.

3. Tartib tuman Kengashi deputatining daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid masalani ko‘rib chiqishga doir faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

4. Tuman Kengashi deputati tuman Kengash rozilgisiz o‘zi saylangan hududda jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Deputat tuman Kengashida ovoz berish chog‘ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o‘z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog‘liq boshqa harakatlari uchun vakolat muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonunda javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi.

5. Deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoni qo‘llashga

rozilik olish uchun deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi masala tuman prokurorining yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga (bundan buyon matnda taqdimnomasi deb yuritiladi) binoan tuman Kengashi tomonidan o‘n kun ichida hal etilishi lozim.

6. Deputatni javobgarlikka tortishga rozilik olish to‘g‘risida tuman prokurori tomonidan kiritilgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin.

7. Tuman prokuratura organining taqdimnomasida quyidagilar aniq aks ettirilishi lozim:

jinoiy yoki ma‘muriy ishni yuritayotgan vakolatli organ to‘g‘risida batafsil ma‘lumot;

jinoiy yoki ma‘muriy ishning tafsilotlari, bunda jinoyat yoki ma‘muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joy;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun aniq asoslar, deputatning xatti-harakatlari yoki qilmishlariga baho beruvchi va jinoyat yoki huquqbazarlikka aloqadorligini ko‘rsatuvchi holatlar (sodir etilgan jinoiy yoki ma‘muriy qilmishni isbotlovchi asoslar);

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish zaruratini yuzaga keltiruvchi surishtiruv yoki tergov organi tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan protsessual harakatlar;

jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazoni qo‘llashga rozilik olish to‘g‘risidagi so‘rovi;

taqdimnomasi kiritilgan sana, ro‘yxatga olish tartib raqami, taqdimnomani kiritgan prokuror to‘g‘risida ma‘lumot.

8. Tuman prokuratura organining taqdimnomasi tuman Kengashi kotibiyatida ro‘yxatga olingan kundan boshlab taqdim etilgan deb hisoblanadi. Taqdimnomasi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan kiritilgan taqdirda, mazkur taqdimnomasi ko‘rib chiqilmaydi va uni kiritgan davlat organiga tuman Kengashi kotibiysi tomonidan darhol qaytarib yuboriladi.

9. Deputat o‘zi tuman Kengash deputati bo‘lgan tuman hududidan tashqarida jinoyat yoki ma‘muriy huquqbazarlik sodir etgan bo‘lsa, uni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazoni qo‘llashga rozilik olish talab qilinmaydi. Bundan tashqari, deputat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-porsessual kodeksining 221 va 223-moddalari talablaridan kelib chiqib, quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda u daxlsizlik huquqidan mahrum qilinmagan holda ushlab turilishi mumkin:

jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa;

jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;

uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

shaxsni jinoyat sodir etishda guman qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa.

## **II-bob. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi taqdimnomani tuman Kengashning doimiy komissiyasida dastlabki tarzda ko‘rib chiqish tartibi**

10. Prokuror taqdimnomasi tuman Kengashiga kelib tushgandan keyin tuman Kengashi kotibiyati tomonidan rasmiylashtiriladi va shu kunning o‘zida tuman Kengashi raisiga taqdim etiladi. Tuman Kengashi raisi taqdimnomaga bilan tanishib chiqib, uni ko‘rib chiqish uchun Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaga (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) yo‘naltiradi. Zarur hollarda, tuman Kengash raisi ushbu taqdimnomani Komissiya bilan ko‘rib chiqish uchun boshqa doimiy komissiyani ham jalb etishi mumkin.

11. Taqdimnomaga Komissiyaga kelib tushgandan keyin ikki ish kuni ichida komissiya majlisida yopiq tarzda muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so‘ralgan deputatning o‘zi ham ishtiroy etadi. Muhokama jarayoniga boshqa shaxslarni taklif qilishga faqatgina doimiy komissiya raisining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

12. Komissiya majlisida Komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi ishtiroy etsa, vakolatli hisoblanadi.

13. Komissiya o‘z majlisida taqdimnomani ko‘rib chiqishda quyidagi masalalarni atroflicha va batafsil o‘rganib chiqadi:

taqdimnomaga ushbu Tartibning 7-bandiga muvofiq kiritilganligi va vakolatli mansabdar shaxs tomonidan imzolanganligi;

taqdimnomada ko‘rsatilgan jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlikning qisqacha mazmuni, sodir etilgan vaqt va joyi;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun aniq asoslar, deputatning xatti-harakatlari yoki qilmishlariga baho beruvchi va jinoyat yoki huquqbuzarlikka aloqadorligini ko‘rsatuvchi holatlar (sodir etilgan jinoiy yoki ma’muriy qilmishni isbotlovchi asoslar);

taqdimnomada ko‘rsatilgan jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik deputatning tuman Kengashida ovoz berish chog‘ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon

etganligi hamda o‘z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog‘liq boshqa harakatlari bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligi.

14. Zarur hollarda Komissiya o‘z majlisiga taqdimnomani kiritgan prokuratura vakilini taklif etishi va taqdimnorna yuzasidan qo‘sishimcha ma’lumotlarni talab qilib olishi mumkin.

15. Komissiya majlisiga o‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat taklif qilinadi. O‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat Komissiya tomonidan taqdimnoma mazmuni bilan tanishtiriladi.

16. O‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat unga doir masalani ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

o‘ziga nisbatan kiritilgan taqdimnoma mazmuni bilan tanishib chiqish; taqdimnoma mazmuni bo‘yicha e’tirozlari mavjud bo‘lgan taqdirda

Komissiya raisiga yoki yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish, bunda shikoyat qilinishi Komissiya ishini to‘xtatib turishga asos bo‘lmaydi;

holat bo‘yicha hujjatlar, ma’lumotnomalar va boshqa materiallar taqdim etish;

taqdimnomani Komissiya majlisida ko‘rib chiqish jarayonidan norozi bo‘lgan taqdirda tuman Kengashiga belgilangan tartibda shikoyat qilish.

17. O‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat zimmasiga muhokama qilinayotgan ish yuzasidan o‘zining aybsizligini yoki ishning boshqa biror bir holatini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

18. O‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat mazkur masala yuzasidan so‘ralgan zarur hujjatlarni va boshqa axborotlarni taqdim qilishi zarur. Bunda o‘rganish o‘tkazishga to‘sinqinlik qilishga, Komissiya a’zolariga o‘z vazifalarini amalga oshirishga xalaqit qilishga va ularga ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

19. Taqdimnomani muhokama qilish yakunlari bo‘yicha Komissiya bayonnomada shaklida qaror qabul qiladi. Komissiya qarorida quyidagi masalalar aks ettirilishi lozim:

Komissiya majlisi bo‘lib o‘tgan sana, vaqt va joy;

Komissiya majlisida ko‘rib chiqilgan masalaning mazmuni, shu jumladan taqdimnomaning qisqacha mazmuni;

taqdimnomada ko‘rsatilgan jinoiy yoki ma’muriy ishni yuritayotgan vakolatlari organ hamda jinoyat yoki ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joyi to‘g‘risida ma’lumot;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun aniq asoslar, deputatning xatti-harakatlari yoki qilmishlariga baho beruvchi va jinoyat yoki huquqbazarlikka aloqadorligini ko‘rsatuvchi holatlar to‘g‘risida ma’lumot;

taqdimnomada ko'rsatilgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik deputatning tuman Kengashida ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai

nazarini bayon etganligi hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari bilan bog'liq yoki bog'liq emasligi;

Komissiya a'zolarining, daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'rangan deputatning va boshqa zarur shaxslarning ishtirokiga oid ma'lumotlar va muhokama jarayonida ular tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar mazmuni va ovoz berish natijalari;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish bo'yicha asoslantirilgan xulosa hamda ushbu masalani tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish haqida taklif.

20. Komissiya qarori Komissiya a'zolari urnumiylar sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

21. Tuman Kengashi kotibiyati taqdimnomani rasmiylashtirgandan keyin uni ko'rib chiqish bo'yicha kelgusi o'n kun ichida o'tkaziladigan sessiya kun tartibiga kiritish yuzasidan tuman Kengashi raisiga taklif kiritadi. Agarda navbatdagi sessiya yaqin uch kun ichida o'tkazilishi belgilangan va bu sessiya Komissiyaning majlisi o'tkaziladigan kundan oldin bo'lsa yoki yaqin o'n kun ichida sessiya o'tkazilishi rejalashtirilmagan bo'lsa taqdimnomani muhokama qilish bo'yicha navbatdan tashqari sessiya chaqiriladi. Bunda sessiyani chaqirish bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi shart.

22. Komissiyaning majlisida deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish bo'yicha yakuniy qarorga kelish imkon bo'limgan hollarda, Komissiya ikki ish kundan kechiktirmagan holda mazkur taqdimnomani sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiya bilan birgalikda qo'shma majlisida taqdimnomani kiritgan prokuratura vakili ishtirokida ko'rib chiqadi. Bunday holatlarda Komissiya raisi qo'shma majlislarga raislik qiladi. Qo'shma majlisda ikkala komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda majlis vakolatlari hisoblanadi.

23. Qo'shma majlis yopiq tarzda o'tkaziladi va bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Qo'shma majlis jarayoniga boshqa shaxslarni taklif qilishga faqatgina doimiy komissiya raisining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

24. Qo'shma majlis yakuni bo'yicha mazkur tartibning 19-bandida belgilangan tartibda bayonnomaga rasmiylashtiriladi.

25. Qo'shma majlis yakuni yuzasidan mazkur Tartibning 22-va 23- bandlarida belgilangan tartibda tuman Kengashning navbatdagi sessiya kun tartibiga kiritish yuzasidan qo'shma qarori qabul qilinadi.

### **III-bob. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi taqdimnomani tuman Kengash sessiyasida ko‘rib chiqish.**

26. Tuman Kengashi sessiyasida o‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat, shuningdek, sessiyada taqdimnomani kiritgan prokuror yoki uning o‘rinbosari ishtirok etishi lozim. Agar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, viloyat yoki ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdimnoma kiritilgan bo‘lsa, sessiyada tuman prokurori yoki uning o‘rinbosari ishtirok etishi mumkin. Sessiyada taqdimnomani ko‘rib chiqish masalasi muhokama qilinayotganda o‘ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputat raislik qilishi mumkin emas.

27. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish haqidagi masala tuman Kengash sessiyasiga raislik qiluvchining qisqa kirish so‘zi bilan boshlanadi, bunda raislik qiluvchi sessiya ishtirokchilarini taqdimnoma doirasida ko‘rib chiqilayotgan ish yurituvdagagi muayyan ishlar va materiallar, shuningdek, mazkur tartibning 7-bandida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni oshkor etish taqiqlanishi to‘g‘risida ogohlantiradi.

28. Raislik qiluvchi tomonidan sessiyada muhokama qilinadigan masala, jinoiy yoki ma’muriy ishni yuritayotgan vakolatli organ, jinoyat yoki ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joy hamda taqdimnomada ko‘rsatilgan jinoiy yoki ma’muriy ishining tafsilotlari to‘g‘risida axborot beriladi.

29. Kirish so‘zidan so‘ng navbat deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun aniq asoslar, deputatning jinoyat yoki huquqbazarlikka aloqadorligini ko‘rsatuvchi holatlar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun so‘z taqdimnomani kiritgan prokuror yoki uning o‘rinbosariga beriladi.

30. Taqdimnomani kiritgan prokuror yoki uning o‘rinbosarining axborotidan so‘ng raislik qiluvchining ruxsati bilan sessiya ishtirokchilari eshituvda ko‘rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishga o‘tadilar. Bunda deputatlar munozaralar bilan chiqishi, taqdimnomani kiritgan prokuror yoki uning o‘rinbosariga yoki daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so‘ralgan deputatga savollar berishi mumkin.

31. Muhokama yakunlari bo‘yicha deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish bo‘yicha ovoz berish jarayoni o‘tkaziladi. Sessiyada ishtirok etayotgan deputatlarning taklifiga asosan oyoz berish yopiq shaklda o‘tkazilishi ham mumkin. Muhokama yakuni bo‘yicha qabul qilinadigan qaror deputatlar umumiyligi sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

32. Tuman Kengashi deputatining daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish masalasiga doir qarorida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

taqdimnoma kiritilgan sana, ro'yxatga olish tartib raqami, taqdimnomani kiritgan prokuror to'g'risida ma'lumot; jinoiy yoki ma'muriy ishni yuritayotgan vakolatli organ to'g'risida ma'lumot;

jinoiy yoki ma'muriy ishining tafsilotlari, bunda jinoyat yoki ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joyi aniq ko'rsatiladi;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun aniq asoslar, deputatning sodir etilgan jinoyat yoki hurquqbazarlikka aloqadorligini ko'rsatuvchi holatlar to'g'risida batafsil ma'lumot;

taqdimnomada ko'rsatilgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbazarlik deputatning tuman Kengashida ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari bilan bog'liq yoki bog'liq emasligi;

mazkur masalani Komissiyada ko'rib chiqish natijalari;

deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish bo'yicha xulosa, bunda rozilik berish yoki rad etish masalasi asoslantirilgan bo'lishi lozim.

33. Tuman Kengashi deputatining daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish masalasiga doir qarori rasmiylashtirilgandan keyin darhol tegishli prokurorga yurboriladi.

34. Tuman Kengashi sessiyasida deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasini ko'rib chiqish jarayoni o'ziga nisbatan taqdimnoma kiritilgan deputatning roziligi bilan sessiya ochiq yoki yopiq shaklda o'tkazilishidan qat'iy nazar video tasvirga olinadi hamda videomateriallar sessiya qaroriga ilova qilingan holda tuman Kengashi kotibiyatida saqlanadi. Saqlangan video tasvirdan tuman Kengashning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid qarori qonuniyligini viloyat Kengashi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ko'rib chiqish jarayonida foydalanimishi mumkin.

35. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan prokuror ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida tuman Kengashga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

36. Tuman Kengash deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish rad etilgan taqdirda yuqori turuvchi prokuror belgilangan tartibda ushbu qarorni bekor qilish va qayta ko'rib chiqish uchun topshirish to'g'risida viloyat Kengashga, Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritishi mumkin.

#### **IV-bob. Yakunlovchi qoidalar**

37. O‘ziga nisbatan taqdimnomalar kiritilgan deputat tuman Kengashining daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish to‘g‘risidagi qarori ustidan viloyat Kengash, Oliy Majlis Senatiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat etishi mumkin.

38. Tuman Kengashi tomonidan deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi taqdimnomalarni ko‘rib chiqishda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv hamda tergov organi ish yurituvda bo‘lgan muayyan ishlar va materiallarga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

39. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasini ko‘rib chiqish jarayonida ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallar, mazkur tartibning 7-bandida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni oshkor etgan shaxslar, shuningdek mazkur tartib talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.